

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING XALQARO BAHOLASH DASTURLARIDA FAOL ISHTIROK ETISHI

¹Sh.M.Mingboyeva,

²H.H.Esonova,

³S.H.Ismoilova,

Guliston shahar 16-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchilari,
maktab16gul*@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7515341>

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini bo'lmish boshlang'ich ta'limning ahamiyati va PIRLS xalqaro baholash dasturining mazmuni va ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, boshlang'ich ta'lim, savodxonlik, STEAM ta'lim tizimi, PIRLS, o'qitish strategiyasi.

Mamlakatimiz hozirda o'z oldiga ulkan maqsadlarni qo'yimoqda va bu yo'lda u barcha sohalarni rivojlantirishning maqsad qilib qo'ygan, xususan ta'lim sohasini ham. Kundan kunga ushbu sohada yangidan yangi qarorlar, yoshlar uchun turli xil qulayliklar yaratilmoqda. Birgina ta'lim sohasini isloh qilish orqali biz tasavvur ham qilolmagan muammolar o'z yechimini topadi, chunki eng rivojlangan mamlakatlar ham avvalo ta'limga katta e'tiborini qaratgan. Kelajak yoshlari mustaqil va yetuk shaxs bo'lib yetishishlari uchun imkoniyat yaratilmas ekan biz rivojlangan mamlakatlar qatorida bo'lishni hayol qilishimiz ham noo'rin. Eng avvalo bolalarda bilimning ilk poydevorlari maktabgacha ta'limda beriladi, so'ngra u qisman tayyor holda maktabga chiqadi. Bu yerda esa asosiy tamal toshini ana endi boshlang'ich ta'lim qo'yadi ya'ni bolalarning jamiyat uchun mos yetuk shaxs bo'lib yetishishini ta'minlaydi. Shu o'rinda hozirgi paytdagi boshlang'ich ta'lim bolalarning qanchalik kelajakka tayyorlayotgani haqida so'z yuritsak. Albatta bolaga yetti yoshidan boshlab barcha kerakli ta'lim berib borilmoqda hattoki tarbiyasi ham shakllantirilyapti, ammo ular hozirgi zamon talablariga qanchalik javob berayapti ekan? Bu holatga meni fikrim, bu ta'lim hali jahon talablariga mos emas, chunki hozirda bolalarda faqat nazariy ma'lumotlar berish bilangina cheklanib qolinmoqda, ularga kelajak hayoti uchun asqotadigan boshlang'ich bilim va ko'nikmalar berilishi lozim. Muassasalarda dars o'tish holatlari bir xillikda tashkil etilishi bolalarning tor doirada shakllanishiga olib keladi.

Rivojlangan davlatlarda tahsil olayotgan bolalar esa har kuni yangi bilimlar o'rganib hattoki o'zlari ham yanglik yaratishyapti. Bu ularga to'g'ri ta'lim berilayotganining yaqqol isbotidir. Bizning ta'limda ham chet el tajribalari asosida sohaga yangiliklar olib kelindi, aytaylik STEAM ta'limni yanada rivojlantirilib, yoshlarni amaliy hayotga tayyorlash, nazariyaga amaliy

yondashish orqali o'quvchilar fikrlashini oshirishga qaratilganini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Ammo bizda hali bu yo'nalishi to'liq shakllanmagan, bunga asosiy sabab ba'zi hududlarda va ta'lim maskanlarda bir xilda o'qitishning saqlanib qolganligidir.

Yoshlarimizning bilim darajalarida hali hanuz ba'zi nuqsonlar bor, masalan tez fikrlash, aniq faktlarga asoslanish, keng doirada fikrlashdagi kamchiliklarni aytishimiz mumkin, lekin bu o'rtacha hisobda aytilmoqda, ya'ni bizda ham o'z bilim va salohiyatiga ega yoshlar talaygina. Bugungi kun yoshlarining intellektual salohiyati yuqorilab borgan sari berilayotgan bilimlar ham shunga yarasha yuqori sifatda, dunyoqarashini kengaytiradigan, tanqidiy va ijodiy fikrlashga undaydigan, barcha ma'lumotlarni tahlil qilishga o'rgatsagina maqsadga muvofiq bo'ladi.

Albatta bilimli yoshlar safi kundan kunga ortib bormoqda va bunda malakali pedagoglarning o'rni katta. Shu o'rinda masalaning boshqa tomoniga ham qaraydigan bo'lsak, boshlang'ich sinflarda o'zlashtirishi sust o'quvchilar bilan alohida ishlash va ulardagi yashirin qobiliyatlarini ochish, ularni o'zlari qiziqqan sohaga yo'naltirish pedagogdan kuchli bilim va malakani talab qilmoqda, demak yoshlarni bilimli qilishda avvalo kadrlarning salohiyatini oshirish zarur. Shuningdek, yaxshi tashkil etilgan o'qitish strategiyasi ham bu borada kerakli maqsadga erishishda o'z samarasini beradi ya'ni darsliklar sifati, malakali pedagoglar, qulay shart-sharoit juda muhim sanaladi.

Boshlang'ich ta'lim sohasini rivojlantirish va takomillashtirishda xalqaro tadqiqot dasturlarining o'rni beqiyos va bu borada PIRLS xalqaro baholash dasturini yorqin misol sifatida olishimiz mumkin. Bu dastur 4-sinf o'quvchilarida matnni o'qish va tushunish darajasini baholaydi. Mamlakatimiz ham bu yil ushbu tadqiqot dasturiga qatnashishi ko'zda tutilgan va tayyorgarlik bo'yicha kerakli chora-tadbirlar hozirga qadar ko'rib kelinmoqda. Ta'lim muassasalarida boshlang'ich sinf o'quvchilariga dars berishda ularni xalqaro tadqiqotlar talablari darajasida o'qitish va ularning o'qish samaradorligini oshirish yo'llari belgilandi.

PIRLS tadqiqoti bo'yicha oxirgi yetakchi o'rinni Rossiya olganligini hisobga olsak demak, biz rivojlangan mamlakatlar bilan raqobatlasha oladigan yosh o'quvchilarni tayyorlashimiz kerak. Ularning savodxonligi hamda bilimlarni amaliyotda qo'llash qobiliyatini rivojlantirish muhim masala sanaladi. Bunday xalqaro tadqiqot dasturlarida qatnashish mamlakatimiz kelajagini belgilaydi, ya'ni uning natijalari amaldagi ta'lim dasturining qanchalik samara berayotganini aniqlaydi va uning zaif nuqtalarini belgilab, zarur o'quv islohotini

amalgga oshirish kerakligini belgilab beradi. Shu tarzda yurtimiz ta'limi ham boshqa dunyo davlatlari ta'lim tizimi bilan uyg'un ravishda rivojlanib boradi va kelajakda rivojlangan davlatlar qatorida bo'lib, butun dunyo taniydigan davlat bo'lishiga ishonamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Колягин Ю.М. Об интеграции обучения и воспитания в начальной школе.

Начальная школа. - 1998. -Л 3. - С. 18.

2. R. A. Mavlonova va bosq. "Boshlang'ich ta'limda pedagogika, innivasiya, integrasiya", Toshkent, "G.G'ulom" nashriyoti 2013-yil.